

МАКТАБЛАРДА ОНА ТИЛ ФАНИНИ О'QITISHNING АХАМИЯТИ

*Sa'dullayeva Tursunoy - NDPI talabasi
Shabdorova Sveta - NDPI talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanining maktablarda o'quvchilarga o'qitishning ahamiyati va xususiyati haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Shuningdek, maqolada ona tili fanini bugungi kun yoshlariga o'qitishdagi muhim bo'lgan jahbalar, fanni o'qitishdagi metodik mahorat haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: metodika, ona tili ,bilim, o'quvchilar, ko'nikma, salohiyat, ahamiyat, leksik-uslubiy bo'yoq, metod.

Bugungi kunda ta'lif tizimiga qaratilayotgan e'tibor pedagoglar uchun ulkan mas'uliyat yuklamoqda. Har bir o'quvchini aqlan yetuk, yuksak salohiyatli va barkamol etib tarbiyalash ,uchinchi renessansga mustahkam poydevor qo'yish bugungi kun pedagoglariga ulkan sharaf taqdim etmoqda. Shu bilan birga ona tili bo'lgan o'zbek tiliga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Ona tili- har bir xalqning milliy tili. Ona tilining lug'at tarkibi shu xalqning kelib chiqish tarixi ,madaniyati ,turmush tarzi, an'analarini aks ettiradigan so'z va tushunchalardan iborat bo'ladi.Ona tili-millatning ruhi. Tilning yuksalishi millatning yuksalishi demakdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning qonun yo'li bilan himoya qilinadigan davlat ramziga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maktablarda ona tili o'qitishning bosh maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodning erkin va mustaqil fikr yuritishi uchun zamin yaratish, milliy o'zlikni anglatish, o'zbek tilini chuqurroq o'rghanishga, milliy qadriyatlarni anglab yetishga, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviyatimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Shu bilan bir qatorda ona tili fanini o'qitishda bir qancha masalalar yuzaga kelmoqda. Dars jarayonining og'zaki va yozma shaklini baravariga olib borishga e'tibor berila boshlandi. Binobarin, ilmiy savodxonlikni oshirishda grammatik qoidalarni puxta egallash, ko'chirib yozish qoidalari, orfografiya, leksikalogiya bo'limlarini chuqur egallash va ularni amaliy tatbiq qilishga zamin yaratilmoqda.

Ilg'or tajribali o'qituvchilar darslarni tashkil etishda o'tilganlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan bir vaqtida yangi darsga ham zamin yaratishgan. Hozirgi zamon darslari shu bilan cheklanib qolmasdan,ya'nikim, o'qituvchi faqatgina ma'ruzachi bo'lib qolmasdan aktyor bo'lishi kerakligiga ehtiyoj tug'dirmoqda. O'qituvchi darslarni nazariy yetkazib bermasdan ayni shu ma'lumotlarni zamon bilan, dunyo bilan bog'lagan holda nutqqa oid amaliyotga tayanish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ona tili darslarini o'tishda darsning xarakter xususiyatiga qarab dars jarayonining interfaol usulda o'tilishiga erishish lozim. Dars jarayonida testlardan, ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanish, didaktik metodlardan foydalangan holda o'tish lozim.

Ona tili fanini o'qitishda o'quvchilarning psixalogik hamda yosh xususiyatlarini ham inobatga olish lozim.

Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Tilga nisbatan qiziqish uyg'otishda adabiyot bilan hamnafas bo'lism ham o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirishga amaliy ko'mak beradi.

Tilga oid bilimlarni o'rgatishda o'quvchilarda nutq faoliyatidagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Dars jarayonini yaxshi olib borish o'quvchilarning o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda aniq bayon etishlariga zamin yaratadi. Tilni o'rgatishda hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Jarayonda qanday materiallardan foydalanish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kung kelib darsda qo'llanadigan materiallarga ham talab ortdi. Materialning asosiy talabi matn va gaplarning leksik-uslubiy bo'yoqdorligi, ularning izchilligi va ketma-ketligi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, o'quvchilarning yoshiga mosligidir.

Ona tili fanini o'qitishda metodlarni o'quvchilar yoshiga mos tarzda tanlashda ham alohida ahamiyat berish lozim. Hozirgi kunda „Sehrli so'z” „Aqlning charxla” „Oltin baliqcha” kabi metodlarni didaktik metodlar deb atashimiz, ulardan foydalanishimiz mumkin. Shuningdek, kichik yoshdagi o'quvchilarning tilning talaffuzi, leksik, grafik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarning o'zaro bog'lanishi mohiyatini anglashi uchun nisbatan sodda metodlardan foydalanish kerak. Shunda dars sifatlari va o'quvchiga tushunarli bo'ladi.

Maktablarda ona tili fanini o'qitishning tub mohiyati kelajak avlodni milliy ruh asosida, o'zligini anglagan holda tarbiyalashdan iborat.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova va boshqalar „Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent-2009;
2. Normatov U. „Ona tili o'qitishning dolzarb muammolari” Toshkent-2008y;